

TARIX FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR

Parpiyeva Xalida Abdinabiyevna

Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi

Tarix va huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitish metodikasi, maktablarda tarix darslarini tashkil etish hamda tarix fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar.

Ta'lim tizimida qo'llaniladigan metodlar, tarix o'qitish metodlarining metodistlar tomonidan klassifikatsiyalanishi, ko'rgazmali metodlardan foydalanishning ahamiyati. O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Endilikda, ta'lim mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limning rivojlanish printsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lim mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi. O'qitish metodlari murakkab muammo bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida oldiga qo'yilgan mas'uliyatli vazifalarning hal etilishi ko'p jihatdan uning to'g'ri hal qilinishiga bog'liqdir. Biroq, hozircha o'qitish metodikasining bu muhim muammosi, xususan, tarix o'qitish metodlari sistemasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi.

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli asosiy fan sifatida o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, tarix fanini o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan va o'quvchilarga zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim berishdan iborat. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli – tarix ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi. Tarix fanini o'qitish jarayonida o'rganadigan muammolar G.Fuzailova tomonidan muvaffaqiyatli yoritilgan. Mavzuning mazmun va mohiyatini

yorituvchi aksariyat mavzularga jadval, sxemalarni kiritgan. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar modulining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borish va o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlarning muhim shartidir. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli tadqiq etadigan, o'quvchilarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va ular ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Tarix fanini o'qitish metodikasini o'qitish haqida gap ketganda ham mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning konstruktiv ko'rsatmalariga asoslanmog'imiz lozim. Buning uchun tarixni xolisona va turli mafkuraviy qarashlardan holi holatda o'quvchilar ongi va qalbiga singdirmog'imiz lozim. Bu maqsadga erishish uchun o'qituvchilar "Metod", "Usul", "Texnologiya", "Interfaol metodlar" nima ekanligini puxta o'zlashtirishlari lozim. Pedagogika fanlari doktori, professor Begzod Xo'jaev "Metod, usul, texnologiya" nomli maqolasida o'qituvchilar orasida bu masalalarda yo'l qo'yib kelingan chalkashliklarga barham berish bo'yicha dalilli tavsiyalar berdi. "Metod" yunoncha so'z bo'lib, "tadqiqot", "bilish yo'li", "maqsadga erishish yo'li" ma'nosini ifodalaydi. "Usul" esa "metod"ning alohida tarkibiy qismidir. Masalan, tarix darslarida "Aqliy hujum" metodidan foydalanilsa, uni qo'llashda bir necha usuldan foydalanish mumkin:

1-usul: O'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash uchun darsning kirish qismida qo'llaniladi;

2-usul: Mavzuni takrorlash, o'tgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash uchun yangi mavzuga o'tish qismida qo'llaniladi;

3-usul: O'tilgan mavzuni mustahkamlashda, dars o'tilgandan so'ng uni mustahkamlash jarayonida qo'llaniladi;

4-usul: Uyga vazifani tushuntirish jarayonida ham qo'llash mumkin.

Demak. "Aqliy hujum" metodi 4 ta usul yordamida amalga oshirilishi mumkin ekan.

Tarixiy shaxsni top metodi.

Bu metodda o'quvchilardan 4 nafari doskaga chiqadi hamda tarixiy shaxs haqida ma'lumotlar berila boshlaydi. 4 ta tarixiy shaxs haqida ma'lumotlar aytiladi. Eng ko'p tarixiy shaxsni topgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilarni eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlanadi.

O'qituvchilarning ayrimlari "metod"ning o'rniga "uslub" so'zini qo'llaydi. Bu to'g'ri emas, chunki "uslub" ko'proq xususiy (aynan o'qituvchiga xoslikni) ifoda etadi. Interfaol metodlar yangi bilimlar berishga xizmat qilmaydi. O'quvchilarni faollikka undaydi. Shu sababli ular bir necha asrlardan buyon qo'llanib kelinayotgan suhbat, hikoya, tushuntirish, ko'rsatish, namoyish etish, didaktik o'yin kabi metodlarni chetga surib qo'ya olmaydi. So'nggi vaqtlarda "texnologiya" tushunchasini "metodika"dan ustun qo'yishga urinish ham kuzatilmoqda. Bu ham xato. Aslida esa "metodika"- metatexnologiya bo'lib, texnologiyadan ustun turadi.

“Metodika”-“Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi. “Texnologiya” esa “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?”-degan savolga javob beradi. Tarix fani o‘qituvchisi “Metod”, “usul” va “texnologiya” tushunchalarini bir-biridan ajrata olishi tarix o‘qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Metodika - pedagogika fani sohasida ma’lum o‘quv fanni o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Fanni o‘qitish metodikasi – ta’lim tizimida ushbu o‘quv fanining ahamiyati va o‘rnini belgilaydi, uning vazifalari, o‘qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo‘yicha qo‘llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tizimlari amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan, amaldagi o‘qitish metodlarini asosan uch guruhga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

1. Og‘zaki bayon qilish metodi.
2. Ko‘rgazmalilik metodi.
3. Amaliy metod.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar tarix ta’limi sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar ongi va qalbida yaqin va olis o‘tmish tarixiy qonuniyatlarini milliy ruhda singdirish, undan saboq olish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. T., O‘zbekiston, 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi . “Xalq so‘zi”, 2020-yil, 25-yanvar.
3. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbayi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020- yil, 1- sentabr.
4. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU 2011
5. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi 2004